

## ***Ta'larning zamonaviy transformatsiyasi***

**Bo'lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish metodikasi**

**Xudoyberdiyeva Durdonan Baxodir qizi**

*Guliston Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Tel: +99897-644-95-95, e-mail: [hudojberdievgijosiddin@gmail.com](mailto:hudojberdievgijosiddin@gmail.com)*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada keltirilgan manbalar bo'lajak tarbiyachilarni tanlash va rivojlantirish mezonlarini aniqlashtirish, bo'lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritib berish va shu sohadagi asosiy yo'nalishlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy qarashlar, yondashuvlar, usullarni shakllantirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, integratsiya, kompetentlik, texnologiya, kreativ, tyutorlik, mentorlik tizimi, "bending", "striming", "setting", psixoemotsional, kontseptsiya

### **Методика совершенствования исследовательской компетентности**

#### **будущих педагогов на основе творческих подходов**

**Xudoyberdieva Durdonan Baxodir kizi**

*преподаватель Гулистанского государственного педагогического  
института*

**Аннотация:** Представленные в статье источники уточняют критерии отбора и развития будущих педагогов, уточняют педагогические и психологические особенности совершенствования исследовательской компетентности будущих педагогов на основе творческих подходов, формируют научные взгляды, подходы и методы совершенствования. рассказано об основных направлениях в этой области.

**Ключевые слова:** инновация, интеграция, компетентность, технология, креатив, наставничество, система наставничества, «изгиб», «потоковая», «настройка», психоэмоциональный, концепция.

**The method of improving the research competence of future educators  
based on creative approaches**

***Khudoyberdieva Durdona Bakhodir qizi***

*is a teacher of Gulistan State Pedagogical Institute*

**Annotation:** The sources presented in this article clarify the criteria for the selection and development of future educators, clarify the pedagogical and psychological features of improving the research competence of future educators based on creative approaches, and form scientific views, approaches, and methods for improving the basic directions in this field. is talked about.

**Key words:** innovation, integration, competence, technology, creative, tutoring, mentoring system, "bending", "streaming", "setting", psycho-emotional, concept

Jahon miqyosida innovatsion g'oya va texnologiyalarni jadal rivojlantirish ehtiyoji nostandart va kreativ fikrlashga qodir bo'lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish tizimini takomillashtirish, talabalarning iqtidorini rivojlantirish, maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilishiga sabab bo'lmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'limni tashkil etish, bo'lajak tarbiyachilarning tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning pedagogik mexanizmlarini rivojlantirish, tyutorlik, mentorlik tizimi, “bending”, “streaming”, “setting” kabi o'qitish shakllarini amaliyotga tadbiq etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida kredit-modul tizimi mustaqil

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

ta'limni tashkil etish, talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativ fikrlash, mustaqil ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori malakali mutaxassislarni iste'molchilar talablariga mos tayyorlash, talabalarining tanlagan ixtisosligi bo'yicha bilim, ko'nikmalarini shakllantirilish, mustaqil bilim olish va egallangan bilim, malakalarni amaliy faoliyatga tatbiq etishga o'rgatish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, ilg'or tajribalarni optimallashtirish, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining kreativlik qobiliyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonining pedagogik-psixologik imkoniyatlari asosida shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda mustaqil ta'lim olish va mustaqil ishlanish ko'nikmalarini uzlusiz amalga oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalari, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, kreativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi. "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" 1 ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning izchil texnologiyalarini tatbiq etish imkoniyatlari oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi PF-4947-son, 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son, 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahonda bo'lajak tarbiyachilarining tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning pedagogik o'ziga xosliklari, ta'lim dasturlari va didaktik ta'minotini takomillashtirish, darsdan tashqari ishlar jarayonida talabalarning iqtidorini rivojlantirish, iqtidor va qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik hislatlar, talabalarga individual yondashuv asosida intellektual salohiyatni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar uzliksiz ta'lim tizimining quyi bosqichlaridanoq talabalarning imkoniyatlari va qiziqishlarini aniqlash va ta'lim mazmunini shu asosda tashkil etishga xizmat qilib, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish omili sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda bo'lajak tarbiyachilarini qo'llab-quvvatlashning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, bo'lajak tarbiyachilarini o'qitish va tarbiyalashning innovatsion tizimini joriy etish, bu borada oila, ta'lim muassasasasi va yoshlar tashkilotlarining hamkorligini yo'lga qo'yishga qaratilgan islohotlar ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak tarbiyachilarini tanlashning diagnostik apparatini ishlab chiqish, bo'lajak tarbiyachilarining tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiya va metodlarini joriy etish imkoniyatini oshirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida "bo'lajak tarbiyachilar va iste'dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish, «Prezident maktablarini» tashkil etish" [7] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarining tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va bo'lajak tarbiyachilarini tanlash va rivojlantirish mezonlarini aniqlashtirish, bo'lajak tarbiyachilarining tadqiqotchilik kompetentligini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik tuzilmasini va tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirish zaruratini izohlab beradi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachilarning mustaqil ta'lim jarayonida kreativ sifatlarini rivojlantirish metodikasi mavzusida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tashkil etish muammosining mavjud holati o'rganildi, bo'lajak tarbiyachilarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariyalar, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning usul, vositalari aniqlandi va ularning samaradorligi asoslandi.

2. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va beshta o'zaro bog'liq komponentlarni mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Model umumkasbiy fanlarni o'rganishda, mакtabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishi bo'lajak tarbiyachilarining mustaqil ta'lim jarayonida ularning kreativlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy-amaliy asosi bo'lib xizmat qilishi asoslandi.

3. Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida "Bolalarni saxnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tayyorlandi. "Bolalarni saxnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fanidan amaliy natija, ilm-fan va texnika-texnologiyalarning yutuqlari asosida tayyorlangan mazkur mobil ilovanining katta hajmdagi ma'lumotlarni tarbiyachilar hamda bo'lajak tarbiyachilar uchun qulayligi asoslab berildi.

### **Adabiyotlar (References)**

1. Пешерева Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана Бюллетень САГУ. Выш.11. - Ташкент, 1925 - С.92).
2. Lex.uz. 27.05.2019 йилдаги 434-сон. —ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИННИГ ҚАРОРИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

- КОНЦЕПЦИЯСИНИ ТАСДИҚЛАШ ТҮФРИСИДА” 3. <https://uz.unistica.com/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-ekologik-talim/>
4. <https://fayllar.org/3-variant-i--topshiriq-maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-ekologik.html>
  5. Салаев Ф. Ҳозирги ўзбек илмий фантастик адабиетида инсон ва табиат муаммолари: Фил. фан. ном. дисс автореф. - Нукус, 1993. – Б. 128;
  6. Жўраев М. Наврўз қўшиқлари. -Т.: А. Навоий номли Ўзб. Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007;
  7. Қодиров П. —Қалб кўзлари‖. –Т.: Маънавият, 2001; Шермуҳамедов П. Сен ёнмасанг, мен ёнмасам... -Т.: 1990; Шайхов Ҳ. Илмийлик ва афсонавийлик // Ёшлик альманахи. - 1981. - II-сон.
  8. Ashurova, O. A. (2021). AESTHETIC EDUCATION AS A FACTOR OF PROFESSIONAL TRAINING OF PRESCHOOL TEACHERS IN A PEDAGOGICAL UNIVERSITY. Theoretical & Applied Science, (5), 425-427.